

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулв Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i> SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умида Нормурадовна</i> ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУҒДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исмамович</i> ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (ХХСР)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i> SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i> SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonbek Akrom o'g'li</i> MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tolipova Baxtigul</i> MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i> ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i> INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i> APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'zxon Saloxiddin o'g'li</i> MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i> ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i> AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganovna</i> RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinboyevna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i> АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК ҲОЯЛАР ИНЪИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадқуловна</i> ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloev Otabek Muhammadovich</i> KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Тоқимбетова Гулбахор Абатбаевна</i> ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Alijon qizi</i> “BOBURNOMA”NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i> JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i> SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING QIYOSIY TADQIQI: “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

<i>Abulova Zilola Azimovna</i> INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI .....	207-201
<i>Qurbonova Dilnoza Olimovna</i> TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK.....	210-216
<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI .....	217-221
<i>Babajanova Aziza Rustamovna</i> ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI .....	222-227
<i>Khursanova Laylo Bakhtiyarovna</i> REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH DICTIONARIES .....	228-232
<i>Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI .....	233-238
<i>Samadova Visola Baxtiyor qizi</i> INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLGIK BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	239-242
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Tўlaganova Gulchexraзахитовна, Гофурова Дилафруз Мурод қизи</i> AЁЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	243-252
<i>Tosheva Maftuna Anvar qizi</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR .....	253-262
<i>Ikramov Sherzod Raximdjanoich</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	263-266
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Tohirova Mohigul Umir qizi</i> KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOY FRUSTRATSIYA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) .....	267-274
<i>Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich</i> OLY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI .....	275-281
<i>Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	282-292
<i>Ashurova Marhabo Sayfulloyevna</i> BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .....	293-301



<i>Алимова Нигора Исраиловна</i> ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Матажонова Гулноза Каримовна</i> IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i> GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i> QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i> УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i> МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i> GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'riboyevna</i> TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i> TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbas Meyliyevich</i> ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i> BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024  
**Accepted:** 5 September 2024  
**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **GRAMMATICAL MINIMUM AND METHODS OF ITS TEACHING**

**Akhmadjanova Madina Makhmudjon kizi**

Alisher Navoi TashSUULL Native Language Education, Department's main doctoral student  
[sadiya170420@gmail.com](mailto:sadiya170420@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the concept of grammatical minimum, its history, content and importance in the modern language teaching process. Grammatical minimum is considered as an important element in linguistics and language teaching that helps students to learn basic grammatical rules effectively. The article examines the issues of formation and development of the grammatical minimum, and considers the ways of its enrichment and adaptation in the modern education system. The article also analyzes the perspectives of new approaches and methods aimed at developing the grammatical minimum. These studies are enriched with practical recommendations aimed at making the language teaching process more effective and developing students' grammatical skills. This annotation briefly and clearly expresses the main directions of the article, gives the reader a general understanding of the content of the article.

**Key words:** grammatical minimum, grammatical rules, educational strategies, pedagogical approaches, teaching methods, educational technologies.

## **GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI**

**Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, Ona tili ta'limi kafedrası tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada grammatik minimum tushunchasi, uning tarixi, mazmuni va zamonaviy til o'rgatish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Grammatik minimum tilshunoslikda va tilni o'rgatishda o'quvchilarning asosiy grammatik qoidalarni samarali o'zlashtirishga yordam beruvchi muhim unsur sifatida qaraladi. Maqolada grammatik minimumni shakllantirish va rivojlantirish masalalari o'rganilib, zamonaviy ta'lim tizimida uni boyitish va moslashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada grammatik minimumni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar va metodikalarning istiqbollari ham tahlil qilinadi. Ushbu izlanishlar til o'rgatish jarayonini yanada samarali qilish va o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan. Bu annotatsiya maqolaning asosiy yo'nalishlarini qisqa va aniq ifodalaydi, o'quvchiga maqolaning mazmuni haqida umumiy tushuncha beradi.

**Kalit so'zlar:** grammatik minimum, grammatik qoidalar, ta'lim strategiyalari, pedagogik yondashuvlar, o'rgatish metodlari, ta'lim texnologiyalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N42.1>

**Kirish.** Tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri tilni o'rganishni soddalashtirish va samarali o'rgatish yo'llarini izlab topishdir. Bu jarayonda "grammatik minimum" tushunchasi alohida o'rin tutadi. Grammatik minimum bu til o'rganuvchilarga zarur bo'lgan eng muhim grammatik qoidalar va tuzilmalar to'plami bo'lib, u tilni tezroq va samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Bu minimum o'quvchilarga eng asosiy qoidalarni puxta o'rganish imkonini berib, til bilan bog'liq murakkabliklarni asta-sekinlik bilan yengib o'tishga sharoit yaratadi.

Tilni o'rgatishda grammatik minimumni aniqlash va ishlab chiqish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida o'ta muhim bo'lib, bu nafaqat tilshunoslar va pedagoglar, balki til o'rganuvchilar uchun ham dolzarbdir. Grammatik minimumning to'g'ri shakllantirilishi til o'rganuvchilarning tilga oid bilimlarini mustahkamlashda va ularni amaliy qo'llashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada grammatik minimum tushunchasining tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy til o'rgatish jarayonidagi o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, grammatik minimumni shakllantirishda qo'llaniladigan usullar va uni samarali o'rgatishning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi.

Grammatik minimumning rivojlantirilishi esa, o'z navbatida, til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini qondirish va zamonaviy tilshunoslikda yuzaga kelayotgan yangi talablarga moslashishga xizmat qiladi. Tilni o'rgatishda doimiy ravishda yangi yondashuvlar va uslublar ishlab chiqilmoqda, va bu jarayonda grammatik minimumning ham o'z o'rnini mustahkamlash zaruriyati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, maqolada grammatik minimumni boyitish, uni zamonaviy til o'rgatish talablariga moslashtirish yo'llari, hamda bu jarayonning kelajakdagi istiqbollari xususida fikr yuritiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bu xususda o'zbek hamda chet el tilshunos olimlari izlanishlar olib borishgan hamda o'z fikr mulohazalarini berishgan. Masalan, Rus tilshunos olimi Lev Shcherba o'zining 1936-yil "Grammatik nazariyaga kirish" nomli asarida grammatik minimumning zarurligini ta'kidlab, til o'rganishda asosiy bo'lgan grammatik shakllar va qoidalarni to'g'ri tanlash muhimligini belgilagan. Uning asarlari grammatik materiallarni o'quvchilarga oson o'zlashtirish imkonini beradigan usullarga bag'ishlangan.[1;C.26]. Charlz Friz ingliz tili grammatikasi bo'yicha mutaxassis esa grammatik minimumni til o'rganish uchun asosiy yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etgan. Uning tadqiqotlari ingliz tili grammatikasining eng muhim qismlarini o'rgatishga qaratilgan.[2;P.13] Tilshunoslikda "transformatsion-generativ" grammatika nazariyasining asoschisi bo'lgan Xomskiy ham grammatik minimum tushunchasiga o'z hissasini qo'shgan. U grammatik qoidalar va shakllarning asosiy elementlarini o'rganish orqali til strukturasi va sintaksisini tushunish mumkinligini ta'kidlagan.[3;P.49;50]. O'zbek tilida ham grammatik minimum masalasi ko'plab mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Abdulaziz Madrahimov, G'ulom Sharipov, G'ulom Karimov kabi olimlar o'zbek tilining grammatikasini o'rganishda grammatik minimumni belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Bu olimlarning ishlari grammatik minimumni to'g'ri belgilash va uni til o'rganish jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

Grammatik minimumning tarixiga batafsil to'xtaladigan bo'lsak, til o'rgatish va tilshunoslik fanining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Uzoq tarixiy davrlarda tilni o'rganish va o'rgatishning maqsadlari, usullari va yondashuvlari turli davrlarda o'zgarib kelgan. Grammatik minimum tushunchasi ham aynan tilni o'rgatish jarayonini samarali qilish maqsadida shakllangan va rivojlangan.

### **Boshlang'ich davrlar:**

Grammatik minimumning dastlabki shakllari qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. Misol uchun, qadimgi Rim va Yunoniston davrlarida til o'rgatishning asosiy maqsadi klassik tillarni (masalan, lotin va yunon tillarini) o'rgatish edi. Bu davrda grammatik qoidalarni sistematik tarzda o'rganish va ularni yozma nutqda qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan. Yunon

grammatikasi bo'yicha mashhur olimlar Aristotel va frakiyalik Dionis o'z asarlarida grammatikani tilni o'rganishning asosiy elementi sifatida ko'rsatganlar.

### **O'rta asrlar va uyg'onish davri:**

O'rta asrlarda grammatik minimumni o'rgatishning asosiy manbalari diniy matnlar bo'lib, ularning asosida tilni o'rganish ko'zda tutilgan edi. Ushbu davrda Lotin tili Yevropa ta'lim tizimida asosiy til bo'lib qolgan, va uni o'rganish uchun grammatik minimum tushunchasi o'ziga xos shaklga ega bo'lgan. Uyg'onish davrida esa tilshunoslik fanining rivojlanishi bilan grammatik minimumni ishlab chiqishning yangi usullari yuzaga keldi. Bu davrda o'quvchilarni turli tillarni o'rganishga tayyorlash uchun grammatik minimum aniq shakllantirilgan va keng tarqalgan.

### *Yaqin o'tmish va zamonaviy davr:*

XIX va XX asrlarda tilshunoslik va pedagogika fanlari rivojlanib, grammatik minimum tushunchasi til o'rgatishda muhim o'rin egallagan. Tilni o'rgatish metodikalarining takomillashuvi, jumladan, an'anaviy grammatika-o'qitish usulidan kommunikativ yondashuvlarga o'tish jarayonida grammatik minimumni ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash masalalari yanada dolzarblashdi. Bu davrda til o'rgatuvchi darsliklar va qo'llanmalar, shuningdek, lingvistik tadqiqotlar grammatik minimumni o'quvchilarga sodda va tushunarli shaklda yetkazishga qaratilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik minimum tushunchasi nafaqat til o'rgatish jarayonini soddalashtirish, balki o'quvchilarning amaliy nutq malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda grammatik minimumning rivojlantirilishi va takomillashtirilishi yangi pedagogik texnologiyalar va metodikalarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu orqali grammatik minimum o'quvchilarning individual ehtiyojlari va zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda yanada samarali shaklda takomillashtirilmoqda.

Grammatik minimum quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

#### *1. So'z turkumlari*

Otlar: otning turli turlari (odam ismlari, joy ismlari, narsalar ismlari), ismlarning shakllanishi va qo'llanishi.

Sifatlar: sifatlarning roli, tasvirlash xususiyatlari, sifat va ravish o'rtasidagi farqlar.

Fe'llar: fe'lning zamonlari, turli holatlar (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon), fe'lning qo'llanishi va o'zgarishi.

Ravishlar: harakatni ta'riflash, ravishlarning qo'llanishi.

#### *2. Gap tuzilishi*

Sodda gaplar: asosiy jumla tuzilmalari, so'zlarning grammatik shakli va o'rni.

Murakkab gaplar: qo'shma va murakkab gaplar, gapdagi bo'laklar va ularning bog'lanishi.

Gap tahlili: gaplarni grammatik tahlil qilish, bo'laklarning funksiyalari.

#### *3. Fe'l zamon*

Hozirgi zamon: hozirgi zamon fe'llarining qo'llanishi va shakllari.

O'tgan zamon: o'tgan zamon fe'llari, qo'shimchalar turlari.

Kelasi zamon: kelasi zamon fe'llari va ularning qo'llanishi.

#### *4. Grammatik qoidalar*

Ko'plik va birlik: otlar va fe'llarda ko'plik va birlik shakllarining qo'llanishi.

Kelishik qo'shimchalari: fe'l va otlarda kelishik qo'shimchalarining grammatik vazifalari.

Grammatik kategoriyalar: o‘rin, kelishik, so‘zning grammatik shakllari.

### 5. Imlo va punktuatsiya

Imlo qoidalari: harf, so‘z va jumalarni to‘g‘ri yozish, imlo qoidalarining qo‘llanishi.

Tinish belgilari: nuqta, vergul, so‘roq belgilari, nuqtali vergul va boshqa punktuatsiya belgilari.

Shuningdek, grammatik minimum ta‘limda tilni o‘rgatish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bu tushuncha asosan til o‘rgatishda talab qilinadigan asosiy grammatika qoidalarining to‘plamini anglatadi. Grammatik minimum o‘quvchilarga tilni kommunikativ maqsadlarda samarali qo‘llashlari uchun yetarli bo‘lgan asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Masalan:

1. Asosiy qoidalarni o‘zlashtirish: o‘quvchilar uchun tilning murakkabligini kamaytirish orqali, grammatika qoidalarini oson va tez o‘rganishga yordam beradi.

2. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish: grammatik minimum o‘quvchilarni eng ko‘p ishlatiladigan qoidalar va strukturalar bilan tanishtiradi, bu esa ularga muloqotda to‘g‘ri va aniq ifoda topishga imkon beradi.

3. Tilni samarali o‘rganish: tilni o‘rgatish jarayonida, ko‘p vaqtni grammatika qoidalariga sarflash o‘rniga, ularni faqat eng zarur bo‘lgan minimumga o‘rgatish orqali tilni o‘rganish jarayonini samaraliroq qilish mumkin.

4. O‘quvchilar uchun motivatsiya: grammatik minimumga ega bo‘lish o‘quvchilarga tilni tezroq o‘zlashtirish va bu orqali o‘zlariga nisbatan ishonchlarini oshirish imkonini beradi.

5. Bosqichma-bosqich rivojlanish: o‘quvchilar dastlab grammatikaning minimal darajasini o‘rganishlari kerak, bu ularga keyinchalik murakkab qoidalarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Grammatik minimumni o‘rgatish ta‘limda o‘quv jarayonini yengillashtiradi, o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi va til o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.

4. Tilni mukammal o‘rgatish: grammatik minimumning belgilanishi ta‘lim jarayonida to‘g‘ri va sifatli bilimlarni taqdim etishga yordam beradi.

Grammatik minimumni o‘rgatishda metodlar ham muhim o‘rin tutadi, ya‘ni ularni samarali metodlardan qo‘llab o‘quvchilarga yetkazib bera olish, ularning ongida grammatik bilimlarni, tushunchalarni hosil qilish grammatik mavzularni yanada tezroq o‘zlashtirishiga hissa qo‘shadi.

Grammatik minimumni o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy metodlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

#### 1. Audiolingval metod.

Bu metodda talaffuz va intonatsiyaga katta e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarga grammatik tuzilmalar berilib, ularni takrorlash orqali o‘rganish ta‘kidlanadi. Dialoglar va qisqa jumalarni takrorlash orqali o‘quvchilar grammatik qoidalarni tabiiy ravishda o‘zlashtirishga intiladi.

#### 2. Grammatik tarjima metodi.

Bu metod an’anaviy yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarga grammatik qoidalar tushuntiriladi va ular qo‘llanilishi uchun tarjima mashqlari beriladi. Grammatik minimumni o‘rganishda bu metod qo‘llanilsa, o‘quvchilar nazariy bilimlarni mustahkamlaydi va amaliy mashqlar orqali o‘zlashtiradi.

#### 3. Kommunikativ metod.

Ushbu metod o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Grammatik minimum turli mavzulardagi suhbatlar, roliklar, vaziyatlar orqali o'rgatiladi. Bu metodda grammatika muloqot vositasi sifatida qabul qilinadi, nazariy qoidalarga ko'p e'tibor berilmaydi.

#### *4. Induktiv metod.*

Bu metod o'quvchilarga grammatik qoidalarni o'zlari kashf qilishlariga imkon beradi. Dastlab, o'quvchilarga misollar beriladi, keyin ular qoidani o'zlari chiqaradilar. Bu yondashuv o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini oshiradi va grammatikani ko'proq amaliyot orqali o'rganishga yordam beradi.

#### *5. Deduktiv metod.*

Ushbu metodda o'quvchilar avval grammatik qoidalar bilan tanishtiriladi, keyin esa bu qoidalar asosida mashqlar bajariladi. Bu yondashuv o'qituvchi tomonidan boshqariladi va o'quvchilarga aniq yo'nalishlar beradi.

#### *6. Interaktiv metodlar.*

Ushbu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi. Rolli o'yinlar, guruh mashqlari, loyiha ishlari orqali grammatika o'rganiladi. Bunday metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va grammatik minimumni yanada samarali o'rganishga yordam beradi.

**Natija va muhokama.** Bu metodlar grammatik minimumni samarali va qiziqarli tarzda o'rgatishga yordam beradi va har bir metod o'quvchining ehtiyojlari va darajasiga qarab tanlanishi mumkin. Bu metodlarni bejiz keltirmadik, ingliz tilshunos olimi Merril Sven o'zining "Natija gipoteziasi" ("Output Hypothesis") asarida grammatik minimumni rivojlantirishda til o'rgatish metodlari va tilni faol ravishda qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi. U tilni aktiv ravishda ishlatish orqali grammatik bilimlarni yaxshilash mumkinligini ta'kidlagan.[4.22;25].

Grammatik minimum bo'yicha kelajakdagi yondashuvlar til o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali, individual va innovatsion qilishga qaratilsa yanada mukammal bo'lar edi. Buning uchun esa ba'zi jihat hamda yondashuvlarni hisobga olish kerak:

Har bir o'quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiyinchiliklariga mos ravishda grammatik minimum bo'yicha maxsus o'quv rejalarini ishlab chiqish.

Raqamli grammatika dasturlari: grammatik minimumni o'rgatishga mo'ljallangan interaktiv va o'yinga asoslangan mobil ilovalar va onlayn platformalar.

Tillarni o'rganishdagi individual ehtiyojlar va maqsadlarga ko'ra, grammatik minimumni o'zgartirish va moslashtirish.

Ko'p madaniy yondashuvlar: grammatik minimumni o'rgatishda madaniy kontekstlarni hisobga olish, til o'rganish jarayonini yanada boyitish.

Global til o'rganish: har xil madaniyatlar va tillardagi grammatik minimumlarni solishtirish va umumiy grammatik konseptlarni aniqlash.

Grammatik minimumni bir nechta tillar uchun umumiy bo'lgan qoidalar orqali o'rganish va o'rgatish, ko'p tilli o'quvchilarga mo'ljallangan materiallar yaratish.

Grammatik minimumni o'rgatish uchun o'yin elementlarini qo'shish, o'quvchilarning qiziqishini va motivatsiyasini oshirish.

Grammatik minimumni o'rgatish uchun simulyatsiyalar, muammolar va interaktiv topshiriqlarni qo'llash.

Bu yondashuvlar grammatik minimumni o'rgatish va o'rganish jarayonlarini yanada zamonaviy va samarali qilishga yordam bergan bo'lar edi. Eng muhimi tilni o'qitishdan maqsad o'quvchilarga uning mazmuni, undan o'z fikrlarini erkin ifodalay olish hamda samarali foydalana olish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Buning uchun esa tilni xususan grammatikani albatta o'quvchilarning yoshi hamda ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda murakkab bo'lmagan usullar orqali o'rgatish muhimdir. Shu o'rinda metodist olimi K.Mavlonovanning bu xususda bildirgan fikrlari ham o'rinlidir: "Til ta'limi jarayonida lisoniy struktura emas, balki mazmun birlamchi ekanidan kelib chiqib, grammatik bilimlar spiralsimon shaklda beriladi. Ona tilidan ta'lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo'llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'rgatishga asoslangan, ya'ni belgilangan ko'nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik bilimlarga zarurat bo'lsa, shundan o'quvchining yosh xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalaniladi. Bir mavzuga qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e'tibor qaratiladi, ya'ni grammatika tildan ongli foydalanish maqsadidagina o'qitilishi asos qilib olinadi".[5: B.22]. Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning ba'zilari uzoq vaqtdan beri qo'llanmoqda, boshqalari esa yaqin kelajakda rivojlanishi kutilmoqda.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish joizki, grammatik minimum til o'rganish va o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng zaruriy grammatik qoidalar va tuzilmalarni o'z ichiga oladi. U tilni o'zlashtirishning asosiy bosqichi bo'lib, o'quvchilarga tilni samarali va tez o'rganish imkonini beradi. Kelajakdagi yondashuvlar esa grammatik minimumni o'qitishni yanada samarali, individual va texnologiyalarga asoslangan qilishni maqsad qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli vositalar, innovatsion tilshunoslik yondashuvlari, ko'p tillik va o'yinli kabi metodlar til o'rganish jarayonini yangi darajaga olib chiqadi. Bu yondashuvlar grammatik minimumni o'zlashtirishni yanada qiziqarli va moslashtirilgan qilish orqali, o'quvchilarning motivatsiyasi va muvaffaqiyat darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, grammatik minimum bo'yicha ta'lim jarayonida davom etayotgan innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlar kelajakda til o'rganish jarayonini butunlay yangi qirralar bilan boyitishi kutilmoqda.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Щерба Л. Введение в теорию грамматики. – Ленинград, 1936. – 320 с.
2. Fries Ch. Teaching and Learning English as a Foreign Language. Michigan University. – Michigan, 1945. – 160 p.
3. Chomskiy N. Aspects of the Theory of Syntax. Massachusetts Institute of Technology Press. – Boston, 1965. – 250 p.
4. Swain M. Output Hypothesis. Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning. Ablex Publishing Corporation. – Norwood, 1985. – 716 p.
5. Mavlonova K. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati // "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – 452 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).